

O'ZBEK TILI VA UNING DUNYO TILLARI TIZIMIDAGI O'RNI

Ma'rufjonova Xusnigul

*Andijon Davlat Pedagogika instituti "Maktabgacha ta'lim" fakulteti
"Maktabgacha ta'lim pedagogikava psixologiyasi" yo'nalishi 101-guruh talabasi*

Annotatsiya: Bu maqolada biz ona tilimiz bo'lmish o'zbek tilining dunyoda tutgan o'rne, tilning jamiyatda tutgan o'rne haqida haqida so'z yuritilgan. O'zbek tilining davlat tili sifatidagi mavqei haqida ma'lumot keltirilgan. Buni biz quyidagi rejalar asosida yoritamiz:

- dunyo tillari tizimida o'zbek tilining tutgan o'rne
- o'zbek adabiy tilining taraqqiyot bosqichlari
- hozirgi o'zbek adabiy tilining rivojlanish bosqichlari

Kalit so'zlar: ona tili, ma'naviyat, davlat tili, adabiyot, o'zbek tili.

Аннотация: В этом тезисе мы говорим о роли нашего родного узбекского языка в мире, о роли языка в общества. Приводится информация о положении узбекского языка как государственного. Мы рассмотрим это в следующих планах:

- ролы узбекского языка в системе языков мира;
- этапы развития современного узбекского литературного языка;
- этапы развития узбекского литературного языка.

Ключёвые слова: родной язык, духовность, государственный язык, литература, узбекский язык.

Annotation: This thesis mentioned the role of our native language Uzbek in the world, the role of language in society. Information about the status of the Uzbek language as a state language is provided. We will cover this based on the following plans:

- the role of the Uzbek language in the world language system;
- stages of development of the Uzbek literary language;
- stages of development of the current Uzbek literary language.

Keywords: native language, spirituality, state language, literature, Uzbek language.

KIRISH

Dunyo tillari yoki jahon tillari – Yer sharida yashovchi (yoki avval yashagan) xalqlarning tillari. Ularning umumiy soni 2500 dan 5000 gacha. Ko'p tarqagan dunyo tillarining safiga (million kishi hisobi bilan 1985-yilgi ma'lumot bo'yicha) kiruvchi tillar: xitoy (1 mlrd dan ziyod), ingliz (420) hind, o'ngga yaqin urdu (320), ispan (300), rus (250) ingliz tillari.

Bu hisobga ularni gapiruvchilari bilan birga millatlararo, xalqaroalik aloqa sifatida foydalanuvchilar ham kiradi. Barcha dunyo tillari yaqinligiga qarab tilli oilalarga bo'linadi. Ularning har biri yaqin dialektlari guruhida chiqqan, qadimgi zamonlarda bir tilning dialektlari bo'lgan yoki bir tilli ittifoqqa kirgan.

Dunyo tillari

Jahon tillari – yer yuzida hozirgi yashayotgan va qadimda yashab o'tgan xalqlarning tillari. Jahon tillari umumiy soni turli manbalarda 2500 dan 5000 va undan ortiq deb ko'rsatiladi (bularning aniq sonii belgilash juda murakkab, chunki tillar o'rtasidagi va bir tilning dialektlari orasidagi farqlar nihoyatda shartlidir). Jahon tillari ichida keng tarqalganlari (so'zlashuvchilar soniga ko'ra) quyidagilar: xitoy, ingliz, rus, ispan, hind va urdu, indonez, arab, bengal, portugal, yapon, nemis, fransuz, italyan, panjob, telugu, koreys, Maratha, tamil, ukrain va boshqalar.

O'zbek adabiy tilining rivojlanish bosqichlari

Ona tili – millatning ruhidir. Til – davlat timsoli, mulkidir. Tilni asrash, rivojlantirish-millatning yuksalishi demakdir. Xalqning Vatani, davlati kabi yana bir buyuk, ehtimolki, birlamchi boyligi bor. Bu uning tili. Aynan til odamlar guruhini bir millat sifatida biriktiradi, ya'ni xalqni, xalq millatni, millat qiladi. Ulug' mutafakkir shoir hazrat Alisher Navoiyning o'zbek xalqi ma'naviyat dunyosi, tilining shakllanib, rivoj topishida xizmatlari katta bo'lgan. Navoiyning asarlari orqali ona tilimizga bo'lgan mehr-muhabbatimiz oshdi. Bugun bizning Vatanimizda ham chet tillarini o'rganishda zarur shart-sharoitlar yaratilishi bilan birga o'z ona tilini chuqur bilish masalasiga ham alohida e'tibor qaratilmoqda. O'zbekistonda garchi davlat tili o'zbek tili sifatida ko'rsatilmagan bo'lsada, boshqa millatlarning nafaqat tili, balki urf-odatlari ham alohida hurmat qilinadi. Zero, Prezidentimiz ta'kidlaganidek, o'z tilini hurmat qilgan boshqalarning ona tiliga ham chuqur hurmat bilan qaraydi.

Sobiq sho'rolar Konstitutsiyasida SSSR dagi barcha elat, xalq, millatlar va ularning tillari teng huquqli ekanligi ta'kidlanadiga bo'lsa ham, lekin amalda rus tili davlat tili edi. Barcha ish qog'ozlari, pochta, telegraf ishlari, turli darajadagi yig'ilishlar, qurultoylar simpoziumlar rus tilida olib borilardi. Rus tilini bilmaydigan shaxslar uzoqdagi qarindosh-urug'lariga tanish-bilishlariga oddiy bir telegramma ham jo'nata olmas edilar. Bunday holat rus tilidan boshqa tillar qo'llanish doirasining cheklamishiga olib keldi va bu til vakillarining haqli ravishda noroziligiga sababchi bo'ldi.

1988-yildan boshlab o'zbek ziyolilari ham matbuotda o'zlarining qator maqolalari bilan tizlimiz haq-huquqini tiklash, uni davlat tiliga aylatirish muammosini ko'tarib chiqdilar. Bu masalaga bag'ishlangan bir qancha anjumanlar bo'lib o'tdi. Nihoyat, 1989-yilning 21-oktyabrida o'zbek tili O'zbekistonning Davlat tili sifatida rasman e'lon qilindi. Buning natijasida o'zbek tili respublikamizda o'tkazilayotgan oliy darajadagi davlat anjumanlarida ham qo'llaniladigan, davlatnig rasmiy hujjatlari

yuritiladigan, rivojlanish istiqboli qonun bilan belgilangan tilga aylandi. Ana shu nuqtayi nazardan bu qonunning tarixiy ahamiyati kattadir.

“Davlat tili haqida”gi qonun qabul qilingandan so’ng 2 yil vaqt o’tgach, respublikamiz hayotida katta o’zgarish ro’y berdi. Ajdodlarimizning asriy orzusi ro’yobga chiqdi. Mustaqillik qoidaga kiritildi. Dunyoning 120 dan ortiq davlati mustaqil respublikamizni rasman e’tirof etdi va u bilan diplomatik munosabatlar o’rnatdi. O’zbekiston Birlashgan Millatlar Tashkilotiga qabul qilindi.

Qisqa muddat ichida respublikamizning jahon hamjamiyati o’rtasidagi obro’-e’tirofi oshdi. O’zbek degan millat va uning milliy tili jahon jamaotchiligining diqqatini tortdi. “Davlat tili haqida”gi qonunning ko’p moddalari o’z kuchini yo’qotdi yoki tahrir talab bo’lib qoldi. Shuning uchun ham amaldagi qonunni isloh qilish ehtiyoji paydo bo’ldi. Natijada 1995-yilning 21-dekabrda O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining IV sessiyasi “Davlat tili haqida”gi qonunning yangi tahriri qabul qilindi. Yangi tahriridagi Qonunning muhim jihati shundaki, unda o’zbek tilining bugungi jahon hamjamiyatidagi mavqei hisobga olindi. Bu qonunda O’zbekiston Respublikasining demokratik, tinchliksevar siyosati o’zining aniq ifodasini topdi. O’zbek tili O’zbekiston Respublikasining davlat tili sifatida tan olinar ekan, bu narsa respublika hududidagi boshqa tillarning faoliyat ko’rsatishi, rivojlanishi, O’zbekistonda yashovchi barcha millat vakillarining o’z ona tillarida erkin aloqa qilishlari uchun aslo monelik qilmaydi. Qonunning 2-, 4-, 6-, 10-, 14-moddalarida boshqa millat vakillari tillarining amal qilishi himoya qilinadi. Bu esa yangi qonunning naqadar xolis ekanligini ko’rsatadi.

Hozirgi o’zbek adabiy tilining rivojlanishi

Til millatimizning borlig’i, qalbimizning quyoshidir. Til adabiyotni yashnatadigan, millatning ruhiy boyligini oshiradigan ijtimoiy hodisadir. Til yashasa millat ham, adabiyot ham yashaydi. Til bilgan – el biladi. Har qanday tilni o’rganish uchun avval shu tildagi so’zlarni bilib olish kerak bo’ladi. Buning uchun esa shu tildagi gap tuzish, so’zlarni bog’lash, qonun qoidalarni bilish kerak. Tildagi tovushlar talaffuzini yaxshi o’zlashtirib, so’zlarni to’g’ri aytish ham til o’rganishda juda muhim. Ona tilim menga g’urur va iftixor tuyg’usini bag’ishlaydi. Xalqlar o’rtasidagi birlik, ahillik, hurmat tilni bilishdan boshlanadi.

Ushbu qutlug’ ayyom 1989-yil 21-oktyabr sanasi – “Davlat tili haqida”gi qonun qabul qilingan kun ma’naviy jasorat, ezgu maqsadlar ro’yobi bo’lgan kunligi bilan ahamiyatlidir. Ilm-fan, texnik, aqlbovar qilmas darajada rivoj topganiga qaramasdan, dunyo hamjamiyati sayyoramizda nechta til borligi haqida aniq ma’lumotga ega emas. Ba’zi ma’lumotlarga ko’ra dunyo tillarining soni 7 mingdan oshadi. Mazkur tillardan 14 tasi insoniyatning uchdan ikki qismi gaplashadi. Ushbu tillarning har birida so’zlashadiganlar soni esa 50 milliodan ziyod. Dunyodagi 70 tilda gaplashadiganlar 5 milliondan ko’p bo’lsa, qolgan tillarda muloqot qiladiganlar 1 milliondan kam.

Ularning faqat 200 ga yaqini davlat tili yoki rasmiy til maqomiga ega. Shu nuqtai nazardan qaraganda o'zbek tiliga davlat tili maqomi huquqiy jihatdan muhrlab bergan mazkur qonunning xalqimiz hayotidagi o'rni beqiyosdir. Bunday nufuzga ega bo'lgan o'zbek tili asrlar sinovidan o'tgan qiyomiga yetgan va boshqalarga ibrat bo'la oladigan til sanaladi. Bugun O'zbekiston hukumati tomonidan olib borilayotgan siyosat buni amalda ko'rsatmoqda.

Xulosa

O'zbek tilining imkoniyatlari shu qadar kengki, unda nasr va nazm uchun kerakli bo'lgan go'zal va nafis uslublarni topish mumkin. Tilga bo'lgan muhabbat tuyg'usi ona suti bilan qonga kiradi. Tilimiz bizning ruhiy boyligimiz, ma'naviy borlig'imizdir. Millatni yashnatib, uni dunyoga tanitadigan asosiy vosiya til desak adashmagan bo'lamiz. Tilga bo'lgan muhabbat tuyg'usi har bir insonning qalbida jo'sh urib to'lqinlanib turmog'i lozim.

Yurtimiz bo'ylab va xalqaro maydonlarda ona tilimizda yangrayotgan davlat madhiyasi ham qalbimizda vatan tuyg'usini jo'sh urdiradi.

Ulug' ma'rifatparvar bobomiz Abdulla Avloniy ta'kidlaganidek, har bir millatning dunyoda borligini ko'rsatadigan oynai hayoti – bu uning milliy tili va adabiyotidir.

Xulosa qilib aytganda, til – millat qiyofasining bir bo'lagidir. Til bizning millatimizning shon-shuhratini oshiradigan asosiy ko'zgidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasining “Davlat tili haqida”gi qonuni “O'zbek tilining yangi qonunlari” – to'plam T: 1998, 20-30 bet.
2. Shodmonov E, Rafiyev A, G'oyipov “O'zbek tili” (darslik), T:1995
3. Rasulov R, Mirazizov A “O'zbek tili” (o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi muassasalarining boshqa tillarda olib boriladigan guruhlar uchun o'quv qo'llanma) T:2006.
4. “O'zbek tili” (oliy o'quv yurti talabalari uchun) darslik.
5. N. Rasulova, Rafiyev A, darslik ,T 2013